



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ATROF-MUHITGA EKOLOGIK TARBIYASINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Bovanova Umida Abduvahobovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

e-mail: umidabovanova8@gmail.com

Aytbaeva Jadra Begaliyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti talaba

e-mail: comaytbaevaj540@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15220404>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 07-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 15-Aprel 2025 yil

KEY WORDS

boshlang'ich ta'lim, ekologiya, dars, shakl, metodlar, vositalar, muammo, ilmiy-ijodiy faoliyat, fan, texnika, bilim, ta'lim, axloq, ma'naviyat, raqamli texnologiyalar, electron, innovatsion, tarbiya, jamoat, jamiyat, madaniyat, tizim, mustaqil, erkin fikrli.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini yuksaltirish va shu orqali yoshlarda axloqiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida ekologik tushunchalarni rivojlantirish mazmuni, o'qitish metodlari, shakl va vositalarini uyg'unlashtirish, shuningdek, o'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish, tabiat go'zalligini his qilish, uni asrash tuyg'ularini va shaxsiy hayotiy dunyoqarashni to'g'ri shakllantirish jihatlari yoritilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda, sub'ektlarning o'ziga xos xususiyatlari, tashkil etiladigan ijtimoiy funksiyalar aks ettirilgan.

Mamalakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishni taklif qildi. Bu haqda Prezident o'z nutqida nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotganini qayd etdi, mamlakatda uch yil avval "Yashil makon" umummilliy loyihasi boshlandi. Mamalakatimizda olib borilayotga islohatlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, atrof-muhit masalalariga jiddiy siyosiy darajada ishlar jadal olib borilmoqda, demak ekologik tarbiya masalasi xalqimizda sindirilishda avvalom bor Yoshlarda ekologik ta'limni rivojlantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan holda ta'kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televidenie orqali namoyish qilinishi va axolining keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi. Shu bilan birga, dunyo miqyosida ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tahliliy natijalar beradi.

Asosiy qism: Demak, ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish

qiyin. Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik, ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratildi. Ta'limiy islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar vujudga keltirdi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyatini amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan - texnika yutuqlarini, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi, chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni ob'ektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyat shakllantirish va boyitish muhim ahamiyatga ega.

Eng avvalo, tejamkorlik, ekologik bilim, iqtisodiy madaniyat, xalqimiz tomonidan saqlanib kelinayotgan an'analar, umuminsoniy an'analar, milliy an'analar, Vatan, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik, milliylik, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, manfaat, milliy manfaatlar, milliy g'urur, milliy g'oya, urf- odatlar va rasm-rusumlar, ma'naviyat, ma'naviy jasorat va boshqa qator asosiy tushunchalarning mazmun- mohiyatini yoritish zarur. Ta'lim muassasalarida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini asosli va aniq tarzda o'quvchilarga yoritib berilishi ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati, ijtimoiy-ekologik rivojlanishlar bo'yicha ijobiy tasavvurlar shakllantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda Vatanga muhabbat, e'tiqod va sadoqat, Davlat ramzlariga, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlariga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik, kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Muxtasar qilib aytganda, ularda ekologik ta'limni rivojlantiradi. Buni biz quyidagi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini yoritilishida ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelganligi, O'zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Bozor iqtisodi bilan bog'liq muammolarni to'g'ri tahlil qilish, ularni yechimini topish haqidagi keng ma'lumotlarni berish muhim sanaladi. Sababi, inson o'z ehtiyojlarini qondirishi va ko'zlagan maqsadlariga erishishi uchun chidamlilik, irodaviylik, sabr toqat, qanoatlilik, erkin fikrlilik va ongli faoliyatni boshqara olish kabilar zarur sanaladi. Buning uchun eng avvalo, u yashayotgan yurt, ya'ni Vatan mustaqilligi, uning ravnaqi, ekologik rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ayni haqiqat. Binobarin, boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirishni

quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatni rivojlanish qonuniyatlari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar insonning tabiatga ta'sir oqibatlarini haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

3. O'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirishni tarbiyalash.

4. Tabiatni sevishga, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishga undash. O'quvchilarda tabiat oldida mas'uliyatni his etish va anglash malakasini rivojlantirishdan iborat. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy, hayotiy, qiziqarli materiallar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi zarur. Ana shunday materiallardan biri suv haqidagi bilimlar tizimi hisoblanadi. O'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirishida ularda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga diqqatini jalb etilishi hisoblanadi.

Shu bilan birga, o'quvchilar tomonidan dunyo miqyosidagi ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida, Internet orqali ko'plab ma'lumotlarni biladilar va tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin. Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim - tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik, ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratildi. Ta'limiy islohotlar ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar vujudga keltirdi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun - mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyatini amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan-texnika yutuqlarini, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi, chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni ob'ektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyat shakllantirish va boyitish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, mavzu dolzarbligining quyidagi bosh omillari mavjud:

- dunyo miqyosida ekologik ta'limning zamonaviy talablari va rivojlanish tendensiyalar;
- ekologik ta'limni rivojlantirish asosida o'z faoliyatini tashkil qila oluvchi texnik kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotganligi;

- pedagog kadrlarning ekologik ta'limni rivojlantirishga doir mutaxassislik kompetensiyasiga bo'lgan talabning o'zgarganligi va uning takomillashuvi taqozo etilayotganligi ko'rishimiz mumkin.

Ekologik ta'limni rivojlantirish ekologik bilimlarning zamonaviy tarkibiy qismidir. XXI

asrda ekologik bilimlar taraqqiyotining zamonaviy bosqichi sifatida ekologik xavfsizlik madaniyati vujudga kelgan. Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o'quvchilar ongiga yetkaza olish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini to'g'ri ravishda amalga oshira bilishga o'rgatish ekologik ta'limning asosiy negizini tashkil qiladi.

Ekologik bilimlarning ilmiy asoslari nazariy, amaliy bilimlari va mustaqil ishlar jarayonida tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirishda asosiy e'tibor atrof - muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof - muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy - ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga ekologik madaniyatning asosiy manbalaridan biri hisoblangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ekologik tarbiya va tabiatni muhofazasi turli davrda turlicha izohlangan. Davrlar inson faoliyatining tabiatga ta'siri va tabiatni muhofaza qilish zarurati, ekologik tabiatning tarixiy asoslari kishilik jamiyatining rivojlanish davrlarida o'z aksini topgan. Ayonki, inson tabiatning bir bo'lagi, yani tabiat insonni yaratgan. Lekin, inson jisman va aqlan rivojlanishi bilan tabiatga ozor bera boshlagan. Texnika rivojlanishi o'z navbatida foydali qazilmalardan keng miqyosida foydalanishga olib keldi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, ayniqsa, internet va mobil ilovalar, o'quvchilarga ekologik bilimlarni o'rganishda va atrof-muhitni himoya qilishda qiziqarli va interaktiv imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunga misol tariqasida interaktiv ta'lim platformalari aytib o'tishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga ekologik masalalar bo'yicha interaktiv darslar, videolar va multimedialar orqali bilim olish imkoniyatini beradi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash va ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha o'yinlar va simulyatsiyalar yordamida o'qish samarali bo'ladi.

Bugungi kunda online manbalar va resurslar hayotimiga qo'shmasdan olib bora olmaymiz. Ayniqsa ta'limning barqcha bosqichida o'quvchilar uchun online kurslar, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar va boshqa resurslar mavjud. Bu manbalar yordamida ular global ekologik muammolar haqida yanada chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Va yana mobil ilovalar bugungi kundagi o'rni haqida gapirsak iqtisodiy va siyosiy jabhalarda juda o'rni katta. Ekologik bilimlarni berishda ham mobil ilovaning ro'li ko'p. Ma'lumotlarni taqdim etuvchida, chiqindilarni ajratib tashlash yoki atrof-muhitni kuzatish uchun yaratilgan ilovalar o'quvchilarga atrof-muhitni tahlil qilish va ekologik mas'uliyatni oshirishda yordam beradi.

Ekologik loyihalar va forumlar o'quvchilar raqamli platformalar orqali ekologik loyihalar yaratishi, onlayn forumlarda fikr almashishi yoki jamiyatdagi ekologik tashabbuslarda ishtirok etishi ta'minlaydi. Bu turdagi faoliyatlar o'quvchilarni nafaqat ekologiya haqida o'rganishga, balki jamoaviy ishni rivojlantirishga ham undaydi.

Sensorlar va IoT (Internet of Things) texnologiyalari: Ekologik monitoringni ta'minlash uchun IoT texnologiyalari yordamida atrof-muhitning real vaqtda kuzatilishi o'quvchilarga amaliy ekologik bilimlarni o'rgatish imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilari ekologik tarbiyasini yanada samarali va qiziqarli tarzda rivojlantirishni kafaolatlaydi.

Ekologik tarbiya berish sinfdan va sinfdan tshqari mashg'ulotlar va darsliklar o'quvchilarning bilim tarbiyasini oshiradi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiya

berish dars va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiradi.

Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarni tabiat qo'yniga, tabiat muzeylariga sayohatga olib chiqib, shanbaliklar, suhbatlar, ertaliklar o'tkazish jarayonida ekologik tarbiya shakllantiriladi. Dars jarayonida o'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirish o'qituvchi hikoyasi hamda darsliklarda o'z ifodasini topgan mavzular orqali oladilar.

Shuningdek, bolaga samarali bilim berilishi uchun hamda ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilinishi ham talab etiladi. Tarbiya beruvchining faoliyatida bugungi kunda ilg'or texnologiyalarda foydalana olishi va barcha ishlarida keng qo'llanishi o'qituvchining pedagogik faoliyatida zamon talabi bilan yurishini belgilaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, sog'lom tabiiy atrof-muhitni saqlash ko'p jihatdan o'quvchi yoshlarning ekologiya bilimlarni qay darajada xabardorligi bog'liq bo'ladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda raqamli texnologiyalar, platformalar, moil ilovalardan ishlashi maqsadlarga erishishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Oliy majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
2. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// – O'zbekiston. – T.: 2017.
3. Ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi taxriri 2020-yilning 23 - sentabrda O'RQ-637 son.
4. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. //“O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi” 1993 yil. 1- son, 11-modda.
5. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya //Zamonaviy ta'lim. - 2018. 11-son. - B. 53-58.
6. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Sharipov M.K. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018.
7. Nishonova N.O'. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish: Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. - Toshkent, 2001. - 21 b.
8. Jabborova O., Sapparbayeva D. Boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi. – Chirchiq, 2023
9. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www. Ziyonet.uz
10. U.Bovanova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik munosabatni takomillashtirish imkoniyatlari. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2025, №1.